

INGLIZ TILI FONETIKASI RIVOJLANISH TARIXI

Marufov E. U.

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Fonetika, talaffuz, notiqlik, ko'nikma, kurs, soha, tovush, xorijiy til, nutq.

Annotatsiya

Bu maqolada Buyuk Britaniyada ingliz tili fonetikasining rivojlanish tarixi hamda ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilarning talaffuz ko'nikmasiga doir muammolar ko'rib chiqiladi. Fonetika sohasini zarurati haqida fikr yuritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

XIX asr boshlariga qadar "FONETIKA" atamasi unchalik ko'p qulog'imizga chalinmasa-da, aslida bu so'z Britaniyada 1600 yillarning o'rtalarida mavjud bo'lgan.

Notiqlik, imlo shakllari, pedagogika va nutqni tiklash va keyinchalik XVIII asrda leksikografiyada fonetika sohasi Bels, Ellis, Svit keyinchalik Daniyel kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Dastlab yevropa an-analari bilan bir qatorda fonetikaga oid yozgi kurslar 1887 yillarga qadar, Kembrij, Dublin, London va Oksford kabi markazlarda olib borilgan. 1900-yildan boshlab xuddi shunday fonetik mashg'ulotlar bir qator universitetlarda jumladan Liverpool, London, va Oksfordda tashkil etilgan.[2.27]

Aberkromb 1948 yilda Filologlar jamiyatida chop etgan "Unutilgan fonetistlar" nomli maqolasida 1830 yillarga qadar fonetika degan tushunchalar mavjud bo'lmagan degan afsonalarni rad etish uchun ko'plab dalillarni taqdim etdi.

Aberkromb shunday deydi: Lodvig alifbosi singari alifbo yordamida har qanday tilning talaffuzi tasvirlanishi mumkin. Bundan tashqari unda tarbiyalangan bolalar zarur bo'lgan tillarni talaffuz qilishda qiynalmaydilar.[2.32]

19 asr oxirlarida fonetika sohasi bilan shug'ullanadigan markazlar asosan yevropa qitasida bo'lgan.

XX asrdan boshlab Londonda fonetik mashg'ulotlarda amaliy fonetikaga e'tibor qaratildi. 1948-yilgi "Zeitschrift fur phonetic und allgemein" gazetasida London universitetida fonetika sohasini rivojlantirishni ta'kidlab, Jons universitetda til kurslarida fonetikani o'rganish asosiy o'rinda turishini ta'kidladi.[2.41]

Jonsning yozishicha fonetika maktabi, 1903 yilda doctor Eduards fransuz tilida fonetika bo'yicha universitetda ma'ruzalar o'qishga taklif qilinganida boshlangan.

Shu bilan bir qatorda doktor Uilyams universitetda ingliz va nemis tillarida maxsus havolalar bilan umumiy fonetikaga oid ma'ruzalar olib borgan.

Jons 1924-yili universitet professori (fonetika mutaxassisligi bo'yicha) bo'lgan. 1948-yilda fonetika bilan xorijiy tillarni o'qitish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Fonetika sohasining asosiy maqsadi talabalarga imkon qadar tillarni talaffuzini mahoratli o'rgatish bo'lgan. Shu maqsadda Jons qisqa muddatli kurslar

tuzdi:

- talabalar umumiy fonetik nazariya va fonemalar nazariyasi hamda fonologik tahlilning asosiy tamoyillari bilan tanishadilar;
- talabalarga transkripsiya belgilari o'rgatiladi;
- eshitish ko'nikmasi va nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish rivojlantiriladi.

Jonsning ta'kidlashicha talaffuz mahoratini eshitish qobiliyatisiz rivojlantirib bo'lmaydi. Tovushlarni va ovozni to'g'ri tanlay olish qobiliyati tovush fazilatlarini, intonatsiya va og'zaki nutqning boshqa elementlarini to'g'ri ishlatish uchun eshitish ko'nikmasi ustida ham ishlash kerak.[2.43]

Biror xorijiy til talaffuzini o'rgatishdan oldin talabalarga fonetikaga oid ba'zi bilimlarni berish muhimdir. [U. Ripman]

Fonetikaga oid dastlabki nashrlardan biri U. Ripmanning "Ingliz tili tovushlari", keyinchalik "Ingliz tili fonetikasi" asari bo'ldi.

1877-yilda Genri Svit "Fonetik qo'llanma" yozgan. 1884-yilda u tilni amaliy o'rganishga mo'ljallangan "Ingliz fonetika maktabi" deb ushbu asarini to'ldirgan.

Firz xorijiy til o'rganishda uning fonetikasini o'rganish muhim deb hisoblaydi.

U 1938-yilda yozgan "Fonetika maqsadi" (The aim of phonetics) asarida fonetik ko'nikmani quyidagicha izohlagan:

- ✓ xorijiy til o'rganuvchilarga to'g'ri talaffuzni o'rgatish;
- ✓ talaffuz standartlarini tizimli o'rgatish;
- ✓ nutq nuqsonini aniqlash va tuzatish;
- ✓ orfografiya tuzish;
- ✓ qiyosiy lingvistika;
- ✓ tarixiy lingvistika;
- ✓ shevashunoslik
- ✓ xorijliklar uchun ingliz tili.

Talaba qoniqarli inglizcha talaffuzni o'zlashtirishi uchun yaxshi modelga taqlid qilish yetarli deb o'ylashi mumkin va ba'zida ayrim talabalar o'zlari istagan natijani shu yo'l bilan olishlari mumkin. Ammo zamonaviy tillarni o'qitish bo'yicha katta tajriba eng yaxshi yo'l ekanligini ko'rsatgan. Xorijiy tilni talaffuz qilishni o'rganish ona tilidagi tanish tovushlarni chet tilidagi tovushlar bilan taqqoslab o'rganish yaxshi samara beradi. Jonsning ta'kidlashicha xorijiy til tovushlarini ona tili tovushlari bilan solishtirish uchun talabalar o'z ona tilining fonetik tizimidan yaxshi xabardor bo'lishlari kerak.[3.112.114]

Ripman istalgan samaraga erishishni osonlashtirish uchun amaliy maslahatlar tavsiya etadi. Imkon qadar ko'proq oynaga qaragan holda so'zlarni talaffuz qilish kerak deb ta'kidlaydi.

Derwing va M. Rositier ta'kidlashicha ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchi talabalarning aksariyati talaffuz ko'nikmasini o'rganishda alohida tayyorgarlik ko'rishmaydi.

ADABIYOTLAR

1. J.Harmer "the practice of English language teaching" 2001.
2. P.D. Ashby "Practical phonetics training and the nature of phonetic judgements" 2002.Phil.diss

3. R.Hughes. "Teaching and researching speaking".2012. 112
4. T.Wallace "Teaching speaking,listening and writing" 2010
5. J. Rubin "A review of second language listening comprehension research"
6. Yusupov, O. (2019). FUNCTIONAL-SEMANTIC FEATURES OF LEXICAL DOUBLETS IN ENGLISH. *Philology Matters*, 2019(3), 98-104.
7. Yusupov, O. (2020). Lexical doublets in English and Uzbek linguistics. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 466-468.
8. Zarina, R., Shahram, A., & Umida, K. (2020). Using games to teach management in higher education institute. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 49-52.
9. Shahram, A., Umida, K., & Zarina, R. (2020). Information technology's role in the study of foreign languages. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 96-98.
10. Aslonov, S., & Ruzimurodova, Z. (2020). INGLIZ TILINI O 'QITISHNING INNOVATSION USULLARI. *Студенческий вестник*, (12-5), 72-74.
11. Ruzimurodova, Z., & Aslonov, S. (2020). WHAT TO TEACH TO THE STUDENTS? TO TEACH STANDARD ENGLISH OR WORLD ENGLISHES?. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 367-369).